



## NAVOIY VILOYATI TOMDI TUMANI HOKIMINING QARORI

210800, Tomdi tuman, Yangi Tomdi qo'rg'oni, tel: (79) 582-13-13, fax: 582-13-22, e-mail: tomdi@nv.uz

2023 - yil 24 - avgust

60-5-75-Q/23

Tomdi tumani hokimligi

### Tomdi tumani hokimligining 2023-yil II yarim yillik Ish rejasini tasdiqlash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-dekabrda "Yangi O'zbekiston ma'muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-269-sonli farmoni hamda 2023-yil 28-fevraldagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini **"Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"**da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi PF-27-sonli farmonida belgilangan vazifalar, O'zbekiston Respublikasi Prezident farmonlari, qarorlari, farmoyishlari, Hukumat qarorlari va farmoyishlari, xalq deputatlari tuman Kengashi qarorlari ijrosini hamda hokimlik zimmasiga yuklatilgan vazifalarning to'laqonli bajarilishini ta'minlash, ijro intizomini yanada mustahkamlash maqsadida,

#### QAROR QILAMAN:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Rayosati majlisining 2023-yil 26-iyuldagi "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil II yarim yillik ish rejasini to'g'risida"gi 56/75-sonli bayoni hamda 2023 yil 16 avgustdagi 142-5-0-Q/23-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hokimligida 2023 yilning II yarim yilligida o'tkaziladigan majlislar rejasini **1-ilovaga**;

tuman hokimligining 2023-yil II yarim yilligi uchun ish rejasini **2-16-illovalarga** muvofiq tasdiqlansin.

3. Quyidagi muhim hujjatlar ijrosini ta'minlash tuman hokimi o'rinbosarlari, tuman hokimligi boshqaruv apparati bo'linmalari, tumandagi davlat boshqaruvi organlari va tashkilotlarining ustuvor vazifalari etib belgilansin:

2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini **“Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili”**da amalga oshirishga oid davlat Dasturida;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ijro intizomini mustahkamlash, qonunchilik hujjatlari va topshiriqlar ijrosini samarali tashkil etishda barcha darajalardagi rahbarlarning shaxsiy javobgarligini kuchaytirish bo'yicha 2021-yil 10-fevraldagi PF-6166-son farmonida;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining **“Ijro.gov.uz”** ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlashga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi 2021-yil 31-maydagi PQ-5132-son qarorlarida;

Xalq bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqot o'rnatish va inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining haqiqiy himoya qilinishini ta'minlash maqsadida **“inson manfaati – hamma narsadan yuqoridir”** degan tamoyil asosida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqish;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 2-noyabrdagi “Yashil makon” umummilliy loyihasini amalga oshirish hamda 2023-yil 1-fevraldagi qayta tiklanuvchi energiya manbalarini joriy etish bo'yicha videoselektor yig'ilishlaridagi nutqlarida;

Davlatimiz rahbarining viloyatga tashrifidagi uchrashuvlar va yig'ilishlaridagi ma'ruzalarida;

Tuman hokimligining Davlatimiz rahbari huzuridagi hisobotlari bo'yicha 2023-yil va kelgusi yillar uchun topshiriqlar bayonnomalarida;

O'zbekiston Respublikasi Prezident Farmonlari, qarorlari, farmoyishlari, Hukumat qarorlari va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining 2023-yil II yarim yillik uchun ish rejasidagi belgilangan vazifa va topshiriqlar ijrosini doimiy ta'minlab borish.

4. Tuman hokimining o'rinbosarlari, maslahatchilari va yordamchilariga tuman hokimligi guruh va bo'lim rahbarlari korxonalar va tashkilotlar bilan birgalikda:

tuman hokimligining 2023-yil II yarim yilligi uchun ish rejasining bajarilishini ta'minlash;

O‘zbekiston Respublikasi Qonunlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon, qaror va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining hujjatlari va topshiriqlarining bajarilishini ta‘minlashda ijro intizomiga qat‘iy rioya qilish va uni yanada mustahkamlash;

**uch kun muddatda** 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini **“Insonga e‘tibor va sifatli ta‘lim yili”**da amalga oshirishga oid davlat Dasturida belgilangan vazifalarni bajarish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlarni amalga oshirishga asosiy e‘tiborni qaratgan holda boshqarmalar hamda tuman va shahar hokimliklarining 2023-yil II yarim yilligi uchun ish rejalarini tasdiqlash;

**doimiy va tizimli** asosda – hokimliklar apparati va idoraviy mansub tarkibiy bo‘linmalarda ijro intizomining holati tanqidiy o‘rganib chiqilishini (*ishlab chiqilgan reja-jadvalga muvofiq*) ta‘minlash;

**2023-yil 31-dekabrga qadar** tegishli tuman hokimligi tarkibiy bo‘linmalari, Ijro intizomi bo‘yicha bosh mutaxassisiga joriy yil II yarim yilligi ish rejasining bajarilishi to‘g‘risidagi tahliliy ma‘lumotlarni taqdim etilishini ta‘minlash topshirilsin.

5. Tuman hokimining o‘rinbosarlari, yordamchi va maslahatchilari, tarkibiy bo‘linmalar rahbarlariga:

tuman hokimi va uning o‘rinbosarlari rahbarlik qiladigan amaldagi komissiyalar (kengashlar, ishchi guruhlar va boshqalar) faoliyatini, ularning maqsadli vazifalarini o‘z vaqtida va to‘liq hajmda bajarilishini tashkil qilish;

yagona idoralararo ijro intizomi elektron tizimi (**Ijro.gov.uz**) orqali kelib tushgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti topshiriqlarining ijrosini o‘z muddatida sifatli va to‘liq amalga oshirilishini ta‘minlash, ushbu jarayonlarda hujjatlarning amaldagi qonunchilik talablariga muvofiq to‘g‘ri rasmiylashtirilishiga alohida e‘tibor qaratish;

2023-yil II yarim yillik ish rejasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Hukumati, viloyat hokimi topshiriqlari hamda funksional vazifalardan kelib chiqqan holda oylik ish rejalarini samarali va oqilona rejalashtirish choralarini ko‘rish;

komplekslar tarkibiga kiruvchi korxonalar, tashkilot va muassasalar rahbarlarining ishlari rejalashtirilishiga, ularning har oylik ish rejaları tasdiqlanishi va bajarilishi natijadorligiga nisbatan talabchanlikni kuchaytirish;

**2023-yil 31-dekabrga qadar** tumandagi korxonalar, tashkilot va muassasalar hamda tuman hokimligi bilan birgalikda 2024-yil I yarim yillik ish rejasi loyihasiga takliflarni tuman hokimligi Ijro intizomi bo'yicha bosh mutaxassisiga taqdim etish topshirilsin.

6. Tuman hokimligi Ijro intizomi bo'yicha bosh mutaxassisi tegishli mas'ullar bilan birgalikda tuman hokimligining 2023-yil II yarim yillik ish rejasi bajarilishi monitoringini yurisin va har oy yakuni bilan tuman hokimiga axborot kiritib borsin.

7. Belgilab qo'yilsinki, tuman hokimining o'rinbosarlari, yordamchi va maslahatchilari, tarkibiy bo'linmalari rahbarlari ish rejada belgilab qo'yilgan vazifa va masalalarning o'z vaqtida to'liq bajarilishini ta'minlash bo'yicha shaxsan mas'uldirlar.

8. Mazkur qaror topshiriqlari ijrosining nazorati tuman hokimining o'rinbosarlari va tuman hokimligining tarkibiy bo'linma rahbarlari zimmlariga yuklansin.

Tuman hokimi



K.Aldabergenov

Tomdi tuman hokimining  
2023-yil 24-avgustdagi  
60-5-75-Q/23-son qaroriga  
1-ilova

## Tuman hokimligida 2023-yilning II yarim yilligida o'tkaziladigan

### MAJLISLAR REJASI

| T/r | O'rganiladigan masalalar, nazarda tutilgan chora-tadbirlar  | Bajarish muddati | Mas'ullar   |
|-----|---|------------------|---|
| 1   | "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili" davlat dasturining 2023-yil I yarim yilidagi ijrosi hamda III chorakdagi ustuvor vazifalar to'g'risida.  | Iyul             | Tuman hokimining o'rinbosarlari,<br>Tashkiliy-kadrlar guruhi<br>(B.Bayanasov),<br>Adliya bo'limi (Q.Beknazarov)   |
| 2   | 2023-yil iyun oyida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari, farmoyishlari va bayonlaridagi topshiriklarning ijrosini ta'minlash natijalari to'g'risida.  | Iyul             | Tuman hokimligi<br>Ijro intizomi bo'yicha bosh mutaxassisi (Y.Alikulov),<br>Tuman hokimligi tarkibiy bo'linmalari,<br>Adliya bo'limi (Q.Beknazarov)   |
| 3   | 2023-yil 30-iyul – 30-avgust kunlari Respublika hududida "Obodonlashtirish oyligi"ni o'tkazish to'g'risida.   | Iyul             | Tuman hokimining o'rinbosari (R.Kunakbayev),<br>Kurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bo'limi (F.Rasulov),<br>Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bo'limi (O.Madenov),<br>Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi<br>(A.Azizov,<br>Ovul fuqarolar yig'inlari raislari |
| 4   | O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik va boshqa sohalardagi ayrim majburiy talablarni qisqartirish hamda tartibga solish samaradorligi va natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" qaror loyihasi muhokamasi.   | Iyul             | Tuman hokimining birinchi o'rinbosari<br>(O.Umarov),<br>Adliya bo'limi (Q.Beknazarov)   |
| 5   | O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2023 yillarda axborot-kommunikasiya texnologiyalari sohasini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida" 2022-yil 8-avgustdagi PQ-357-son qarori ijrosini ta'minlashda korxon va tashkilotlar rahbarlarining raqamlashtirish sohasidagi faoliyati natijadorligi to'g'risida. | Iyul             | Tuman hokimining o'rinbosari<br>(R.Kunakbayev),<br>Raqamli iqtisodiyotni joriy etish bo'yicha loyihalar menejeri<br>N.Alibekov  |
| 6   | O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga jinoyatchilikka qarshi kurashish faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonuni loyihasi muhokamasi.   | Iyul             | Tuman hokimligi bosh yuriskonsulti (B.Yusupov),<br>Ichki ishlar bo'limi (A.Ikromov)   |

| T/r | O'rganiladigan masalalar, nazarda tutilgan chora-tadbirlar  | Bajarish muddati                    | Mas'ullar  |
|-----|---|-------------------------------------|--|
| 7   | O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonunlariga dehdon xo'jaligi yuritish maqsadida beriladigan yerlarning maydonini oshirishga qaratilgan o'zgartirishlar va qo'shimcha kiritish to'g'risida"gi Qonuni loyihasi muhokamasi.           | Iyul                                | Tuman hokimining o'rinbosari (K.Karjabov),<br>Qishloq xo'jaligi bo'limi (J.Boranov)  |
| 8   | Asosiy turdagi qishloq xo'jaligi hamda oziq-ovqat mahsulotlari narxlarini barqarorligini ta'minlash va zahirasini yaratish bo'yicha hududlarda ko'rilayotgan choralar samaradorligi to'g'risida.  | Avgust                              | Tuman hokimining o'rinbosarlari (O.Umarov, K.Karjabov),<br>Qishloq xo'jaligi bo'limi (J.Boranov)   |
| 9   | Ta'lim muassasalarini yangi o'quv yiliga tayyorlash, shu jumladan, umumta'lim maktablarida "Birinci qo'ng'iroq" tadbirlariga tayyorgarlik hamda o'quvchi uchun yotoqxonalar qurilishi holati to'g'risida.   | Avgust                              | Tuman hokimining o'rinbosarlari<br>(R.Kunakbayev, N.Beknazarov),<br>Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi (M.Bazarbayev),<br>Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bo'limi (F.Rasulov) |
| 10  | Hududlarda energiya samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini joriy etish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning natijadorligi hamda bu borada soha va hududlar rahbarlarining mas'uliyati to'g'risida.                          | Har oyda bir marotaba               | Tuman hokimining o'rinbosari<br>(R.Kunakbayev),<br>"Hududiy elektr tarmoqlari" AJ Navoiy filiali Tomdi uchastkasi (A.Kaljanov)   |
| 11  | Respublika iste'molchilarini ko'mir yoqilg'isi bilan barqaror ta'minlash bo'yicha ko'rilayotgan choralar to'g'risida.   | Avgust,<br>Oktyabr,<br>Dyabr oylari | Tuman hokimining o'rinbosari<br>(R.Kunakbayev),<br>"Navoiy ko'mir yetkazuvchi" UK (F.Ne'matov)   |
| 12  | O'zbekiston Respublikasi davlat mustakdligining 32-yilligi tantanali bayram tadbirlariga tayyorgarlik ko'rish va uni yuqori saviyada tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida.  | Avgust                              | Tuman hokimining o'rinbosari<br>(B.Beknazarov),<br>Madaniyat bo'limi (J.Utemuratova)   |
| 13  | 2023-yil iyul oyida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari, farmoyishlari va bayonlaridagi topshiriqlarning ijrosini ta'minlash natijalari to'g'risida.  | Avgust                              | Tuman hokimligi<br>Ijro intizomi bo'yicha bosh mutaxassisi<br>(Ye.Alikulov),<br>Tuman hokimligi tarkibiy bo'linmalari,<br>Adliya bo'limi (Q.Beknazarov)                                |
| 14  | "Shaharsozlik faoliyati sohasidagi ma'muriy tartib-taomillarning takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining Shaharsozlik kodeksiga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni loyihasi muhokamasi to'g'risida. | Avgust                              | Tuman hokimining o'rinbosari<br>(R.Kunakbayev),<br>Adliya bo'limi (Q.Beknazarov),<br>Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bo'limi (F.Rasulov)   |
| 15  | 2023-yil avgust oyida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari, farmoyishlari va bayonlaridagi topshiriqlarning ijrosini ta'minlash natijalari to'g'risida.  | Sentyabr                            | Tuman hokimligi<br>Ijro intizomi bo'yicha bosh mutaxassisi<br>(Ye.Alikulov),<br>Tuman hokimligi tarkibiy bo'linmalari,<br>Adliya bo'limi (Q.Beknazarov)                                |

| T/r | O'rganiladigan masalalar, nazarda tutilgan chora-tadbirlar  | Bajarish muddati | Mas'ullar  |
|-----|---|------------------|--|
| 16  | 21-oktyabr - "O'zbek tili bayrami kuni"ga bag'ishlangan tantanali bayram tadbirlarini yuqori saviyada tashkil etish to'g'risida.  | Sentyabr         | Tuman hokimining o'rinbosari (N.Beknazarov), Madaniyat bo'limi (J.Utemuratova), Ma'naviyat va ma'rifat bo'linmasi (M.Samatov)                                    |
| 17  | "1-oktyabr – O'qituvchi va murabbiylar kuni" tadbirlarini o'tkazish to'g'risida.  | Sentyabr         | Tuman hokimining o'rinbosari (N.Beknazarov), Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi (M.Bazarbayev)  |
| 18  | 2023-yil sentyabr oyida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari, farmoyishlari va bayonlaridagi topshiriqlarning ijrosini ta'minlash natijalari to'g'risida.  | Oktyabr          | Tuman hokimligi<br>Ijro intizomi bo'yicha bosh mutaxassisi (Ye.Alikulov),<br>Tuman hokimligi tarkibiy bo'linmalari,<br>Adliya bo'limi (Q.Beknazarov)             |
| 19  | Avtomobil yo'llari, shu jumladan ichki xo'jalik yo'llari, ko'priklar va yo'l o'tkazgichlarni qurish, rekonstruksiya qilish va saqlash, sohaga ilg'or xorijiy tajribani joriy qilish va ushbu maqsadlar uchun ajratilayotgan mablag'lardan samarali foydalanish borasida amalga oshirilayotgan ishlar samaradorligi to'g'risida. | Oktyabr          | Tuman hokimining o'rinbosari (R.Kunakbayev),<br>Tuman yo'llaridan foydalanish unitar korxonasi (I.Norov),<br>Oyuodonlashtirish boshqarmasi (X.Amanov),           |
| 20  | "Yangi O'zbekiston – 2030" strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi 2023-yil 9 oy yakuni bo'yicha bajarilishi to'g'risida.  | Oktyabr          | Tuman hokimining o'rinbosarlari,<br>Tashkiliy-kadrlar guruhi (B.Bayanasov),<br>Adliya bo'limi (Q.Beknazarov)   |
| 21  | Madaniy meros ob'yektlarida olib borilayotgan asrashga doir ishlarning borishi, mavjud madaniy meros ob'yektlaridan maqsadli foydalanilishi holati to'g'risida.   | Oktyabr          | Tuman hokimining o'rinbosari (N.Beknazarov),<br>Madaniyat bo'limi (J.Utemuratova)  |
| 22  | 2023-yilda davlat-xususiy sheriklik asosida yirik quvvatli quyosh va shamol elektr stansiyalarini ishga tushirilishini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar natijadorligi to'g'risida.   | Oktyabr          | Tuman hokimining o'rinbosari (A.Namozov),<br>Investisiyalar, sanoat va savdo bo'limi (J. Bavabayev),<br>Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bo'limi (FRasulov) |
| 23  | 2023-yilda yoshlar bilan ishlash va sport sohasida amalga oshirilgan ishlar hamda maqsadli ko'rsatkichlarga so'zsiz erishishni ta'minlash to'g'risida.  | Oktyabr          | Tuman hokimligi o'rinbosari (N.Beknazarov),<br>Bolalar usmirlar sport maktabi (A.Kazakov),<br>Yoshlar ishlari agentligi (A.Djumamuratov)                         |
| 24  | Bank tizimida muammoli kreditlarni undirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida.  | Oktyabr          | Tuman hokimining birinchi o'rinbosari (O.Umarov),<br>ATB Agro bank tuman filiali (Sh.Ne'matov)   |
| 25  | Navoiy viloyatini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha topshiriqlar ijrosini ta'minlashda korxonalar va tashkilotlar, tijorat banklari hamda mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar natijadorligi to'g'risida.   | Oktyabr          | Tuman hokimining birinchi o'rinbosari (O.Umarov),<br>Iqtisodiyot va moliya bo'limi (K.Igilikov)  |

| T/r | O'rganiladigan masalalar, nazarda tutilgan chora-tadbirlar   | Bajarish muddati | Mas'ullar  |
|-----|--|------------------|--|
| 26  | O'zbekiston Respublikasining "2023-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida" 2022-yil 30-dekabrda O'RQ-813-son Qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida.  | Oktyabr          | Tuman hokimining birinchi o'rinbosari (O.Umarov),<br>Iqtisodiyot va moliya bo'limi (K.Igilikov)  |
| 27  | 2023-yil oktyabr oyida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari, farmoyishlari va bayonlaridagi topshiriqlarning ijrosini ta'minlash natijalari to'g'risida.  | Noyabr           | Tuman hokimligi<br>Ijro intizomi bo'yicha bosh mutaxassisi (Ye.Alikulov),<br>Tuman hokimligi tarkibiy bo'linmalari, Adliya bo'limi (Q.Beknazarov)  |
| 28  | Davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida amalga oshirilishi belgilangan loyihalar bo'yicha olib borilayotgan ishlar natijadorligi to'g'risida.   | Noyabr           | Tuman hokimining birinchi o'rinbosari (O.Umarov),<br>Iqtisodiyot va moliya bo'limi (K.Igilikov)  |
| 29  | O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'muriy islohotlar doirasida sog'liqni saqlash sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida" 2023-yil 21-iyundagi PK-197-son qarori ijro holati to'g'risida.              | Noyabr           | Tuman hokimligi o'rinbosari (N.Beknazarov),<br>Tuman Tibbiyot birlashmasi (M.Narqulov),<br>Iqtisodiyot va moliya bo'limi (K.Igilikov)<br>Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bo'limi (F.Rasulov) |
| 30  | O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2023-yil 31-iyundagi PQ-171-son qarori ijrosini ta'minlash to'g'risida. | Noyabr           | Tuman hokimining o'rinbosari (R.Kunakbayev),<br>Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish bo'limi (A.Azizov),<br>O'rmon xo'jaligi bo'limi (B.Jokashov)  |
| 31  | 2023-yil noyabr oyida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari, farmoyishlari va bayonlaridagi topshiriqlarning ijrosini ta'minlash natijalari to'g'risida.   | Dekabr           | Tuman hokimligi<br>Ijro intizomi bo'yicha bosh mutaxassisi (Y.Alikulov),<br>Tuman hokimligi tarkibiy bo'linmalari, Adliya bo'limi (Q.Beknazarov)   |



Tomdi tuman hokimining  
2023-yil 24-avgustdagi  
60-5-75-Q/23-son qaroriga  
2-ilova

## Tomdi tumani hokimining 2023-yil II yarim yillikka mo'ljallangan

### ISH REJASI

| №  | Ustuvor vazifalar.<br>O'rganiladigan masalalar mavzusi.  | Ijro muddati            | Mas'ullar:<br>Tuman hokimligi tarkibiy bo'linma, hududiy davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, korxonalar va tashkilotlar.  |
|--|--|-------------------------|--|
| <b>I a. 2023-yil II yarim yillikda 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi hamda Vazirlar Mahkamasining yaqin muddatga va uzoq istiqbolga mo'ljallangan harakatlar dasturidan kelib chiqadigan ustuvor vazifalari</b> |  |                         |  |
| 1  | O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-fevraldagi "2022-2026 - yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturi to'g'risida"gi PF-27-son Farmonida belgilangan vazifalarni o'z vaqtida va sifatli amalga oshirish.  | Har oy yakuni bilan     | O.Umarov, R.Qunaqbayev, A.Nomozov, Q.Qarjabov, N.Beknazarov, A.Dospanbetova, B.Bayanasov xalq deputatlari mahalliy Kengashlar, hududiy davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, korxonalar va tashkilot rahbarlari |
| 2  | O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yangi O'zbekiston - 2030" strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni ijrosi doirasidagi chora-tadbirlarni o'z vaqtida va sifatli amalga oshirish.  | Ikkinchi yarim yillikda | O.Umarov, R.Qunaqbayev, A.Nomozov, Q.Qarjabov, N.Beknazarov, A.Dospanbetova, B.Bayanasov xalq deputatlari mahalliy Kengashlar, hududiy davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, korxonalar va tashkilot rahbarlari |
| 3  | O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2022-yil 20-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasida belgilangan quyidagi 6 ta ustuvor yo'nalishdan kelib chiqadigan chora-tadbirlarni o'z vaqtida va sifatli amalga oshirish:<br>1-yo'nalish – Ixcham va samarali <b>davlat boshqaruvi tizimiga</b> o'tish;<br>2-yo'nalish – Yangi O'zbekistonni " <b>ijtimoiy davlat</b> " tamoyili asosida qurish;<br>3-yo'nalish – Inson huquqlari va erkinliklarini ishonchli himoya qilish;<br>4-yo'nalish – Ekologiya, ayniqsa, suv, tabiiy resurslar va yer osti zahiralarni muhofaza qilish;<br>5-yo'nalish – Erkin bozor mexanizmlarini joriy qilish, sog'lom raqobat va xususiy mulk daxlsizligini ta'minlash, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash;<br>6-yo'nalish – Iqtisodiyotga mahalliy va xorijiy xususiy investisiyalarni ko'paytirish uchun yanada qulay shart-sharoit yaratish. | Ikkinchi yarim yillikda | O.Umarov, R.Qunaqbayev, A.Nomozov, Q.Qarjabov, N.Beknazarov, A.Dospanbetova, B.Bayanasov xalq deputatlari mahalliy Kengashlar, hududiy davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, korxonalar va tashkilot rahbarlari |

| № | Ustuvor vazifalar.<br>O'rganiladigan masalalar mavzusi.  | Ijro muddati            | Mas'ullar:<br>Tuman hokimligi tarkibiy bo'linma, hududiy davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, korxonalar va tashkilotlar.  |
|---|--|-------------------------|--|
| 4 | O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Navoiy viloyatiga tashrifi yakunlari bo'yicha tasdiqlangan bayonnomadagi topshiriqlarni sifatli va so'zsiz bajarish.   | Ikkinchi yarim yillikda | O.Umarov, R.Qunaqbayev, A.Nomozov, Q.Qarjabov, N.Beknazarov, A.Dospanbetova, B.Bayanasov xalq deputatlari mahalliy Kengashlar, hududiy davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, korxonalar va tashkilot rahbarlari |
| 5 | O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida o'tkazilgan yig'ilish bayonlari topshiriqlarini so'zsiz va sifatli bajarish.  | Doimiy ravishda         | O.Umarov, R.Qunaqbayev, A.Nomozov, Q.Qarjabov, N.Beknazarov, A.Dospanbetova, B.Bayanasov, Hududiy davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, korxonalar va tashkilot rahbarlari                                      |
| 6 | O'zbekiston Respublikasi "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi Qonuni talablari ijrosini ta'minlashda korxonalar va tashkilot rahbarlarining shaxsiy roli va mas'uliyatini yanada oshirish.  | Har hafta               | O.Umarov, R.Qunaqbayev, A.Nomozov, Q.Qarjabov, N.Beknazarov, A.Dospanbetova, Ye.Abdixaliyev tarkibiy bo'linmalar rahbarlari, tegishli korxonalar, tashkilot va muassasalar   |
| 7 | Viloyat hokimligi apparati tarkibiy bo'linmalari bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 10-fevraldagi "Qonunchilik hujjatlari ijrosini samarali tashkil etishda davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlarining shaxsiy javobgarligini kuchaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6166-son Farmoni va 2021-yil 31-maydagi "Ijro.gov.uz" ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlashga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5132-son qaroridan kelib chiqadigan vazifalarni o'z vaqtida va sifatli amalga oshirish. | Har hafta               | O.Umarov, R.Qunaqbayev, Q.Qarjabov, N.Beknazarov, A.Dospanbetova, S.Mirzayev, B.Bayanasov, Hududiy davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, korxonalar va tashkilot rahbarlari                                     |
| 8 | O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-dekabrda "Yangi O'zbekiston ma'muriy islohatlarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-269-sonli Farmonida belgilab berilgan ustuvor vazifalarning o'z vaqtida sifatli bajarilishini ta'minlash.   | Ikkinchi yarim yillikda | O.Umarov, R.Qunaqbayev, Q.Qarjabov, N.Beknazarov, A.Dospanbetova, B.Bayanasov, Ye.Abdixaliyev, tarkibiy bo'linmalar rahbarlari, tegishli korxonalar, tashkilot va muassasalar                                      |
| 9 | O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-fevraldagi "2023-2024 yillarda Navoiy viloyatini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-52-sonli qarorida belgilab berilgan ustuvor vazifalarning o'z vaqtida sifatli bajarilishini ta'minlash.  | Har oy yakuni bilan     | O.Umarov, R.Qunaqbayev, Q.Qarjabov, N.Beknazarov, A.Dospanbetova, B.Bayanasov hududiy davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, korxonalar va tashkilot rahbarlari  |

| №  | Ustuvor vazifalar.<br>O'rganiladigan masalalar mavzusi.  | Ijro muddati            | Mas'ullar:<br>Tuman hokimligi tarkibiy bo'linma, hududiy davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, korxonalar va tashkilotlar.                                      |
|----|--|-------------------------|--|
| 10 | O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlik sub'yektlari bilan "ochiq muloqot" tadbirini tashkil etish va o'tkazish hamda tadbirkorlar tomonidan bildirilgan murojaatlar asosida tizimli muammolarni hal qilish va yechimlari yuzasidan takliflarni ishlab chiqish.   | Avgust oyi              | O.Umarov, A.Nomozov,<br>Savdo-sanoat palatasi hududiy bo'limi,<br>hududiy davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, korxonalar va tashkilot rahbarlari              |
| 11 | O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-avgustdagi "Mahalliy ijroiya hokimiyati organlari rahbarlari o'rinbosarlarining ularga yuklangan vazifalarni bajarishda shaxsiy mas'uliyatini kuchaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5230-son qaroridan kelib chiqadigan vazifalarni o'z vaqtida va sifatli amalga oshirish. | Har chorakda            | O.Umarov, R.Qunaqbayev, Q.Qarjabov, N.Beknazarov, A.Dospanbetova, B.Bayanasov,<br>Hududiy davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari                                  |
| 12 | O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 8-maydagi "Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi konstitusiyasini amalga oshirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-67-son Farmonidan kelib chiqadigan vazifalarni o'z vaqtida va sifatli amalga oshirish.   | Ikkinchi yarim yillikda | O.Umarov, R.Qunaqbayev, A.Nomozov, Q.Qarjabov, N.Beknazarov, A.Dospanbetova, S.Mirzayev, B.Bayanasov, B.Yusupov<br>Hududiy davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari |
| 13 | Alohida ta'lim ehtiyoji bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari bitiruvchilarini hududlardagi "Ishga marhamat" monomarkazlarida kasb-hunarga o'qitib, ularni munosib ish o'rinlari bilan ta'minlash va o'zini-o'zi band qilish imkoniyatlarini yaratish choralari ko'rib borish.   | Ikkinchi yarim yillikda | O.Umarov<br>Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bo'limi, tegishli korxonalar va tashkilotlar  |
| 14 | O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 19-yanvardagi "Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-92-sonli qarorini ijrosini ta'minlash.   | Doimiy                  | N.Beknazarov<br>Yoshlar ishlari agentligi tuman bo'limi, tegishli korxonalar, tashkilot va muassasalar   |
| 15 | O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-martdagi "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-87-son Farmonida belgilangan ustuvor vazifalarning o'z vaqtida va sifatli amalga oshirilishini ta'minlash.  | Ikkinchi yarim yillikda | A.Dospanbetova<br>Oila va xotin-qizlar bo'limi, tegishli korxonalar, tashkilot va muassasalar rahbarlari   |
| 16 | O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 5-maydagi "Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-135-son qarorida belgilangan vazifalar o'z vaqtida va sifatli amalga oshirilishini ta'minlash.                            | Ikkinchi yarim yillik   | N.Beknazarov<br>korxonalar va tashkilot rahbarlari   |
| 17 | "Yashil makon" umummilliy loyixasi ijrosini ta'minlash hamda respublikada ko'kalamzorlashtirish ishlarini jadallashtirish, daraxtlar muhofazasini samarali tashkil etish bo'yicha ko'rilayotgan amaliy chora-tadbirlar to'g'risida.  | Ikkinchi yarim yillikda | R.Qunaqbayev<br>tuman Ekologiya bo'limi  |

| №   | Ustuvor vazifalar.<br>O'rganiladigan masalalar mavzusi.  | Ijro muddati            | Mas'ullar:<br>Tuman hokimligi tarkibiy bo'linma, hududiy davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, korxonalar va tashkilotlar.  |
|---|--|-------------------------|--|
| 18  | O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-dekabrda "Respublika hududlarini toifalarga ajratish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashning tabaqalashtirilgan tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-287-sonli Farmonida belgilab berilgan ustuvor vazifalarning o'z vaqtida sifatli bajarilishini ta'minlash.   | Ikkinchi yarim yillikda | O.Umarov<br>Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bo'limi, ATB Agrobank, Iqtisodiyot va moliya bo'limi, korxonalar va tashkilot rahbarlari  |
| 19  | O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasining "2023 yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida"gi Qonun ijrosini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-471-sonli qarorida belgilab berilgan ustuvor vazifalarning o'z vaqtida sifatli bajarilishini ta'minlash.   | Ikkinchi yarim yillikda | O.Umarov<br>Iqtisodiyot va moliya bo'limi, tuman tibbiyot birlashmasi  |
| 20  | O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-aprelda "Xizmatlar sohasini rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-104-sonli qarorida belgilangan vazifalarning o'z vaqtida va sifatli bajarilishini ta'minlash.  | Ikkinchi yarim yillikda | O.Umarov<br>Iqtisodiyot va moliya bo'limi  |
| 21  | O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 8-avgustda "Hududlarning jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashga doir ustuvor chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3182-son va 2019-yil 8-yanvardagi "Hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha sektorlar faoliyatini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4102 son qaroriga muvofiq aholi hayoti sifati va darajasini oshirishga yo'naltirilgan mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining ishini tashkil etish shakllari va usullarini tubdan takomillashtirish bo'yicha. | Doimiy ravishda         | O.Umarov, R.Qunaqbayev, A.Nomozov, Q.Qarjabov, A.Dospanbetova, B.Bayanasov, Sektor rahbarlari, Hududiy davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, korxonalar va tashkilot rahbarlari |
| 22  | 2023/2024 yillar kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik ko'rish ishlarini tashkil etish bo'yicha korxonalar va tashkilotlar rahbarlarining shaxsiy mas'uliyati to'g'risida.   | Sentyabr oyi            | R.Qunaqbayev<br>Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bo'limi,   |
| <b>I b. 2023 yil Ikkinchi yarim yillikda ustuvor vazifalarni amalga oshirish bo'yicha takliflar</b> |  |                         |  |
| 1   | O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-fevralda "2023-2024 yillarda Navoiy viloyatini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-52-sonli qarorida belgilab berilgan ustuvor vazifalarning o'z vaqtida sifatli bajarilishini muhokama qilib borish.   | Har oy yakuni bilan     | O.Umarov, R.Qunaqbayev, Q.Qarjabov, N.Beknazarov, A.Dospanbetova, B.Bayanasov<br>hududiy davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, korxonalar va tashkilot rahbarlari               |

| № | Ustuvor vazifalar.<br>O'rganiladigan masalalar mavzusi.  | Ijro muddati            | Mas'ullar:<br>Tuman hokimligi tarkibiy bo'linma, hududiy davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, korxonalar va tashkilotlar.   |
|---|--|-------------------------|---|
| 2 | O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-fevraldagi <b>“2023-yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejavchi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlar to'g'risida”</b> gi PQ-57-sonli qarorida belgilab berilgan ustuvor vazifalarning o'z vaqtida sifatli bajarilishini muhokama qilib borish.     | Har haftada             | O.Umarov, R.Qunaqbayev, Q.Qarjabov, hududiy davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, korxonalar va tashkilot rahbarlari   |
| 3 | Har haftada barcha darajadagi topshiriqlar ijrosi va “ijro.gov.uz” tizimidagi topshiriqlarning bajarilish holati bo'yicha tuman hokimi o'rinbosarlari, korxonalar (tashkilot) rahbarlarining ijro intizomini mustahkamlash bo'yicha hisobotlarini tinglab borish.  | Har haftada             | O.Umarov, R.Qunaqbayev, Q.Qarjabov, N.Beknazarov, A.Dospanbetova, B.Bayanasov, Ye.Abduxaliyev tarkibiy bo'linmalar rahbarlari, tegishli korxonalar, tashkilot va muassasalar, shahar va tumanlar hokimliklari |
| 4 | O'zbekiston Respublikasi Prezidentining <b>“O'zbekiston Respublikasi suv xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”</b> 2020-yil 10-iyuldagi PF-6024-sonli Farmonida belgilangan ustuvor vazifalarning o'z vaqtida va sifatli bajarilishini ta'minlash.                                    | Ikkinchi yarim yillikda | Q.Qarjabov tegishli korxonalar va tashkilotlar  |
| 5 | Har oy yakuni bilan tuman hokimligi apparat yig'ilishida ijro intizomini susaytirib yuborgan korxonalar va tashkilotlari rahbarlarining hisobotlari eshutilishini ta'minlash.  | Har oy yakuni bilan     | B.Bayanasov, korxonalar va tashkilot rahbarlari   |
| 6 | 2023-2025-yillarga mo'ljallangan Investisiya dasturiga kiritilgan investisiya loyihalari o'z vaqtida va samarali amalga oshirilishini hamda 2023 yilning III va IV choraklariga belgilangan prognoz ko'rsatkichlarining bajarilishini tahlil qilish va tegishli takliflar ishlab chiqish.  | Ikkinchi yarim yillikda | A.Nomozov Investisiyalar, sanoat va savdo bo'limi, tegishli mutasaddi tashkilotlar  |
| 7 | O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 9-noyabrdagi <b>“Tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan tartibga solishni soddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”</b> gi PF-244-son Farmoni ijrosini ta'minlash bo'yicha ko'rilayotgan choralar natijadorligi to'g'risida.   | Ikkinchi yarim yillikda | A.Nomozov Investisiyalar, sanoat va savdo bo'limi, Savdo-sanoat palatasi tuman bo'limi  |
| 8 | O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 31-dekabrda <b>“Mahallalarda ijtimoiy xizmatlarni ko'rsatish va ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarga yordam berish tizimini yangi bosqichga ko'tarish hamda xotin-qizlarni kasbga o'rgatish ishlarini yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”</b> gi PQ-300-son qarori ijrosi to'g'risida. | Noyabr oyi              | A.Dospanbetova Oila va xotin-qizlar bo'limi, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bo'limi, Tuman tibbiyot birlashmasi   |

| №  | Ustuvor vazifalar.<br>O'rganiladigan masalalar mavzusi.   | Ijro muddati | Mas'ullar:<br>Tuman hokimligi tarkibiy bo'linma, hududiy davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, korxonalar va tashkilotlar.           |
|--|---|--------------|---|
| <b>II. 2023 yil Ikkinchi yarim yillikda belgilangan ustuvor vazifalarni amalga oshirish bo'yicha ko'rilayotgan choralar natijadorligi tahlillari</b> |   |              |   |
| 1  | Davlat rahbarining Navoiy viloyatiga tashrifi davomida <b>ishsizlikdan holi hududga</b> aylantirish bo'yicha bergan topshiriqlarini ijrosi tahlil qilib borish.   | Doimiy       | O.Umarov, R.Qunaqbayev, Q.Qarjabov, A.Dospanbetova, hududiy davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, korxonalar va tashkilot rahbarlari |
| 2  | <b>"Yangi O'zbekiston"</b> massivlarini qurish hamda bozor tamoyillariga asoslangan ipoteka kreditlari orqali aholini uy-joy bilan ta'minlash borasida ko'rilayotgan chora-tadbirlar to'g'risida.   | Avgust oyi   | O.Umarov, R.Qunaqbayev, Iqtisodiyot va moliya bo'limi, Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bo'limi                                    |
| 3  | O'zbekiston Respublikasi Prezidentining <b>"Ko'p kvartirali uylarni boshqarish tizimini yanada takomillashtirish va boshqaruvchi tashkilotlarni moliyaviy sog'lomlashtirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"</b> 2022-yil 4-avgustdagi PQ-346-son qarori ijrosini tahlil qilish.  | Oktyabr oyi  | R.Qunaqbayev<br>Qurilish va uy-joy kommunal xo'jalik bo'limi  |
| 4  | Investisiya loyihalarini amalga oshirishni nazorat va monitoring qilish, avtomatlashtirilgan axborot tizimi orqali Investisiya dasturiga kiritilgan investisiya loyihalari, shu jumladan, ishga tushiriladigan yirik loyihalar shuningdek, 2017-2022-yillarda foydalanishga topshirilgan quvvatlar bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar natijadorligini tahlil qilish. | Doimiy       | A.Nomozov<br>Investisiyalar, sanoat va savdo bo'limi, Iqtisodiyot va moliya bo'limi   |
| 5  | O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-iyuldagi <b>"Eksport faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish to'g'risida"</b> gi PQ-5184-son qarorida belgilangan vazifalar bajarilishi to'g'risida.   | Doimiy       | A.Nomozov<br>Investisiyalar, sanoat va savdo bo'limi bo'limi  |
| 6  | Viloyat hududlarida aholining ichimlik suv ta'minotini va oqova suv tizimini yaxshilash, sohada davlat-xususiy sheriklik va ijtimoiy sheriklik asosida loyihalarni amalga oshirish, sohaga zamonaviy energiya tejankor texnologiyalarni joriy etish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar natijadorligi to'g'risida.  | Sentyabr oyi | R.Qunaqbayev<br>Qurilish va uy-joy kommunal xo'jalik bo'limi, "Navoiy suv ta'minot" MCHJ tuman bo'limi                                  |
| 7  | O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 24-maydagi <b>"Aholining ichimlik suvi ta'minoti va oqova suv xizmatlari bilan ta'minlanganlik darajasini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"</b> gi PQ-257-son qarori ijrosini tahlil qilish.   | Noyabr oyi   | R.Qunaqbayev<br>"Navoiy suv ta'minot" MCHJ tuman bo'limi, tegishli korxonalar va tashkilotlar   |
| <b>III. O'zbekiston Respublikasi qonunlari ijrosini maqsadli o'rganish va natijasini kengaytirilgan yig'ilishlarda ko'rib chiqish</b>                |   |              |   |

| №  | Ustuvor vazifalar.<br>O'rganiladigan masalalar mavzusi.  | Ijro muddati               | Mas'ullar:<br>Tuman hokimligi tarkibiy bo'linma, hududiy davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, korxonalar va tashkilotlar.   |
|--|--|----------------------------|---|
| 1  | O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-fevraldagi <b>“2023-2024 yillarda Navoiy viloyatini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”</b> gi PQ-52-son qarori ijrosini maqsadli o'rganish  | Sentyabr oyi               | O.Umarov, R.Qunaqbayev, Q.Qarjabov, A.Dospanbetova<br>B.Bayanasov, B.Bayanasov<br>Tarkibiy bo'linmalar rahbarlari, tegishli korxonalar, tashkilot va muassasalar                |
| 2  | O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-dekabrda <b>“2023-2025 yillarda O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”</b> gi PQ-465-son qarori ijrosini maqsadli o'rganish   | Noyabr oyi                 | R.Qunaqbayev,<br>Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bo'limi,<br>tegishli korxonalar, tashkilot va muassasalar,   |
| 3  | O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 11-aprelda <b>PQ-2881-sonli</b> , 2021-yil 10-fevralda <b>PF-6166-sonli</b> , 31-mayda <b>PQ-5132-sonli</b> hamda Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 12-yanvarda <b>12-sonli</b> qarorlari ijrosini korxonalar, tashkilot va muassasalarda o'rganib, tuman hokimligida tanqidiy muhokama etib borish, ijro intizomini mustahkamlashda xato va kamchiliklarga yo'l qo'ygan xodimlarga nisbatan ta'sirchan choralar ko'rish. | Har hafta<br>dushanba kuni | O.Umarov, R.Qunaqbayev, Q.Qarjabov, N.Beknazarov,<br>A.Dospanbetova, S.Mirzayev, B.Bayanasov,<br>Tarkibiy bo'linmalar rahbarlari, tegishli korxonalar, tashkilot va muassasalar |
| 4  | <b>“Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida”</b> gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining tumandagi ijrosi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining <b>“virtual”</b> qabulxonasi va Tomdi tumanidagi <b>“Xalq qabulxonasi”</b> si orqali, shuningdek, tuman hokimligiga jismoniy va yuridik shaxslardan kelib tushgan murojaatlar bilan ishlashning choraklik yakunlari va undan kelib chiqadigan vazifalar to'g'risida.                            | Har chorakda               | Ye.Abdixaliyev<br>Tegishli korxonalar, tashkilot va muassasalar   |
| 5  | O'zbekiston Respublikasi Prezidentining <b>“O'zbekiston Respublikasining 2023-2025-yillarga mo'ljallangan investisiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”</b> 2022-yil 28-dekabrda PQ-459-son qarori ijrosini ta'minlash bo'yicha korxonalar va tashkilot rahbarlarining shaxsiy mas'uliyati to'g'risida.  | Noyabr oyi                 | A.Nomozov<br>Investisiyalar, sanoat va savdo bo'limi,   |
| <b>IV. Tuman hokimi o'rinbosarlari va tarkibiy bo'linma rahbarlarining 2023 yil Ikkinchi yarim yillikda belgilangan hisobotlarini tinglab borish</b> |  |                            |   |

| № | Ustuvor vazifalar.<br>O'rganiladigan masalalar mavzusi.   | Ijro muddati            | Mas'ullar:<br>Tuman hokimligi tarkibiy bo'linma, hududiy davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, korxonalar va tashkilotlar. |
|---|---|-------------------------|---|
| 1 | O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-avgustdagi <b>“Chiqindilar bilan bog'liq ishlarni tashkil etish tizimini isloh qilish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida”</b> gi PF-189-son Farmoni hamda 2022-yil 11-avgustdagi <b>“Sanitar tozalash ishlarini tashkil etish va aholi punktlarida tozalikni ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”</b> gi PQ-349-son qarori ijrosi to'g'risida. | Dekabr oyi              | R.Qunaqbayev<br>Tuman Ekologiya bo'limi   |
| 2 | O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 31-yanvardagi <b>“Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida aholining biznes tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashni yangi bosqichga olib chiqishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”</b> gi PQ-39-son qarori ijrosini tahlil qilish.   | Avgust oyi              | O.Umarov<br>Tuman Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bo'limi,<br>ATB Agrobank tuman filiali                               |
| 3 | O'zbekiston Respublikasi Prezidentining <b>“Maktabgacha ta'lim sohasida davlat xususiy sheriklikni yanada rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”</b> gi 2022-yil 14-iyuldagi PQ-322 son qarori ijrosini maqsadli o'rganish.  | Oktyabr oyi             | N.Beknazarov<br>Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi,  |
| 4 | O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-iyundagi <b>“Hududlarning sanoat salohiyatini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”</b> gi PF-6244-son Farmoni ijrosi to'g'risida.   | Har chorakda            | A.Nomozov<br>Investisiyalar, sanoat va savdo bo'limi, Iqtisodiyot va moliya bo'limi   |
| 5 | O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-dekabrda <b>“Tadbirkorlik sub'yektlarining eksport faoliyatini qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida”</b> gi PF-268-son Farmonida belgilangan vazifalar ijrosi to'g'risida.  | Ikkinchi yarim yillikda | A.Nomozov<br>Investisiyalar, sanoat va savdo bo'limi, Iqtisodiyot va moliya bo'limi   |
| 6 | O'zbekiston Respublikasi Prezidentining <b>“O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasida belgilangan vazifalar ijrosini samarali tashkil etishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”</b> 2022-yil 7-iyundagi PQ-273-son qarori ijrosini o'rganish.  | Sentyabr oyi            | Q.Qarjabov<br>Tuman qishloq xo'jaligi bo'limi,<br>tegishli korxonalar va tashkilotlar   |
| 7 | O'zbekiston Respublikasi Prezidentining <b>“Maktabgacha ta'lim sohasida davlat xususiy sheriklikni yanada rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”</b> gi 2022-yil 14-iyuldagi PQ-322 son qarori ijrosi to'g'risida.   | Avgust oyi              | Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi   |
| 8 | O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-dekabrda <b>“Respublikada ko'klamzorlashtirish ishlarini jadallashtirish, daraxtlar muhofazasini yanada samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida”</b> gi PF-46-son Farmoni hamda <b>“Yashil makon”</b> umummilliy loyihasi amalga oshirilishi to'g'risida.   | Noyabr oyi              | R.Qunaqbayev<br>Tuman Ekologiya bo'limi,<br>tegishli korxonalar va tashkilotlar   |



| №  | Ustuvor vazifalar.<br>O'rganiladigan masalalar mavzusi.  | Ijro muddati            | Mas'ullar:<br>Tuman hokimligi tarkibiy bo'linma, hududiy davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, korxonalar va tashkilotlar.                        |
|--|--|-------------------------|--|
| 9  | O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-sentyabrdagi "Xotin-qizlar bandligini oshirish va salomatligini mustahkamlashga oid qo'shimch chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-376-son qarori ijrosini ta'minlash borasida mutasaddi korxonalar va tashkilotlar rahbarlari tomonidan ko'rilayotgan chora-tadbirlarning natijadorligi to'g'risida. | Oktyabr oyi             | A.Dospanbetova<br>Oila va xotin-qizlar bo'limi,<br>tegishli korxonalar va tashkilot rahbarlari   |
| 10   | O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 31-dekabrdagi "Mahallalarda ijtimoiy xizmatlarni ko'rsatish va ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarga yordam berish tizimini yangi bosqichga ko'tarish hamda xotin-qizlarni kasbga o'rgatish ishlarini yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-300-son qarori ijrosini o'rganish.       | Noyabr oyi              | A.Dospanbetova<br>Oila va xotin-qizlar bo'limi,<br>Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bo'limi,<br>Tuman tibbiyot birlashmasi                     |
| 11   | Vazirlar Mahkamasining "Qurilish sohasida elektron davlat xaridlarini tashkil etish va amalga oshirish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2022-yil 31-yanvardagi 46-son qarori ijrosi to'g'risida.  | Noyabr oyi              | R.Qunaqbayev<br>Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bo'limi, tegishli tashkilotlar   |
| <b>Tuman hokimi rahbarligida o'tkaziladigan asosiy yig'ilishlar va tadbirlar</b> |  |                         |  |
| 1  | O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-fevraldagi "2023-2024-yillarda Navoiy viloyatini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-52-son qarori ijrosini muhokama qilish   | Har oyda                | O.Umarov, R.Qunaqbayev, Q.Qarjabov,<br>Korxonalar va tashkilot rahbarlari, hududiy davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari rahbarlari                |
| 2  | Yoshlar masalalari bo'yicha hududiy idoralararo Kengashi yig'ilishlarini tashkillashtirish.  | Har chorakda            | Yoshlar agentligi tuman bo'limi, tegishli korxonalar, tashkilot va muassasalar,  |
| 3  | O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-fevraldagi "2023-yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejavchi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-57-son qarori ijrosini muhokama qilish  | Har oyda                | O.Umarov, R.Qunaqbayev, Q.Qarjabov,<br>Korxonalar va tashkilot rahbarlari, hududiy davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari rahbarlari                |
| 4  | Qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish bo'yicha viloyat komissiyasi yig'ilishlarini tashkil etish.  | Har chorakda            | O.Umarov, Q.Qarjabov,<br>hududiy davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari rahbarlari  |
| 5  | O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Tomdi tumanidagi Xalq qabulxonasida jismoniy va yuridik shaxslarning qabulini hamda har haftada tuman hokimi o'rinbosarlari, tuman korxonalar, tashkilot va muassasalar rahbarlarining sayyor qabullarini tashkil etish.   | Ikkinchi yarim yillikda | O.Umarov, R.Qunaqbayev, Q.Qarjabov, N.Beknazarov,<br>A.Dospanbetova,<br>Xalq qabulxonasi, hududiy davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari rahbarlari |

| <b>№</b> | <b>Ustuvor vazifalar.<br/>O'rganiladigan masalalar mavzusi.</b>          | <b>Ijro muddati</b>             | <b>Mas'ullar:<br/>Tuman hokimligi tarkibiy bo'linma, hududiy davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, korxonalar va tashkilotlar.</b> |
|----------|--|---------------------------------|---|
| 6        | Tuman hokimligi apparati va "hokim soati" yig'ilishlarini tashkil etish. | Har hafta                       | O.Umarov, R.Qunaqbayev, A.Nomozov, Q.Qarjabov, N.Beknazarov, A.Dospanbetova, B.Bayanasov, B.Bayanasov                                 |
| 7        | Xalq deputatlari tuman Kengashi sessiyalarini tashkil etish.             | Har oyda,<br>Zaruratga<br>ko'ra | R.Sibayev<br>Xalq deputatlari viloyat Kengashi komissiyalari  |

**Tomdi tumani hokimi rahbarlik qiladigan komissiyalar  
RO'YXATI**

